

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish
markazi
hududiy xay‘at raisi
M.T. Xakimova



03 2025 y.

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
direktori
L.X. Musadjanova



« 4 » 03 2025y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

YUQUMLI KASALLIKLARDA HAMSHIRALIK ISHI

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlari uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent-2025 yil

TUZUVCHILAR:

S.A.Muxamedjanova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevt
xodimlar malakasini oshirish va
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

I.A. Imamova.

Toshkent tibbiyot Akademiyasi "Yuqumli va
bolalar yuqumli kasalliklari" kafedrasida katta
o'qituvchisi, t.f.n.

TAQRIZCHILAR:

Sh.A.Tashpulatova

Toshkent tibbiyot Akademiyasi "Yuqumli va
bolalar yuqumli kasalliklari" kafedrasida
dotsenti, t.f.n.

Z.Z. Imamova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevt
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari.

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 » 03 2025 .y.

Pedagogik kengash raisi



bayonnoma № 2/1

L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama
qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 » 03 2025 .y.

bayonnoma № 2

1.Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabrdagi 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malaksini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablarini ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i ijrosini ta‘minlash doirasida yaratilgan. O‘quv dasturda o‘quv fanining mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan. O‘quv dasturi “Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi” yo‘nalishining namunaviy o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, hamshiralarni 144 soat malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. Dastur kasbiy rivojlanish va mutaxassislik fani modullaridan iborat bo‘lib, ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy ta’lim uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlagan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

1.1.Maqsad: O‘qish natijasida “Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi” bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. O‘rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘ziga hosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, bemorlarga sifatli hamshiralik yordamini ko‘rsatish, bemor hayotiga havf soluvchi xolatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

1.2.Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o‘quv jarayonini modulli tibbiy ta’lim tamoyili bo‘yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma’lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o‘quv dasturi bo‘yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko‘rsatiladigan

profilaktik, tashhishlash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;

- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'riy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida ko'p tarqalgan yuqumli kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- aholi o'rtasida va yuqumli kasalliklar shifoxonalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktik hamda epidemiyaga qarshi chora - tadbirlar o'tkazish ko'nikmasini rivojlantirish;
- aholi o'rtasida uchraydigan yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni parvarish qilishning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarini yangilash;
- aholi o'rtasida uchraydigan ichak infeksiyalarida hamshiralik yordamini ko'rsatish ko'nikmalarini yangilash;
- aholi o'rtasida nafas yo'llari yuqumli kasalliklari kechishining xususiyatlari, bemorlar parvarishi va ularning oldini olish choralari haqida yangi ma'lumotlar berish;
- qon infeksiyalari bilan og'rigan bemorlar parvarishining xususiyatlarini o'rgatish hamda OIV\OITS kasalliklarining oldini olish va ularning yuzaga kelishini kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar o'tkazish borasida yangi ma'lumotlar berish;
- avariya holatlari yuzaga kelganda hamshira taktikasi haqida ko'nikmalarini yangilash;
- aholi o'rtasida uchraydigan parazitar kasalliklari kechishining o'ziga xos xususiyatlari, klinik belgilari, yangi tashhisot usullari, bemorlar parvarishi va kasalliklarni oldini olish choralari borasidagi bilimlarini yangilash;
- aholi o'rtasida uchraydigan tashqi qoplam infeksiyalari kechishining o'ziga xos xususiyatlari, klinik belgilari, yangi tashhisot usullari, bemorlar parvarishi va kasalliklarni oldini olish choralari borasidagi bilimlarini yangilash;
- aholi o'rtasida uchraydigan surunkali virusli hepatitlarda hamshiralik parvarishi va dispanser nazoratini to'g'ri yo'lga qo'yishni takomillashtirish, hamda ularning og'ir asoratlari yuzaga kelishini oldini olish to'g'risidagi bilimlarini yangilash;
- karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklar, jumladan gemorragik isitmalar, maymun chechagi haqida yangi ma'lumotlar berish;

- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo‘lmaydigan yordamni ko‘rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta’lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O‘quv dasturi davolash profilaktika muassasalari yuqumli kasalliklar bo‘limlarida faoliyat olib borayotgan hamshiralarning malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo‘lgan tibbiyot hamshiralari uchun mo‘ljallangan.

1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo‘llay oladigan, notiqlik san’atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo‘lishi;
- hamshiraning huquqiy me’yorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bolalarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini amalga oshirish;
- yuqumli kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarni qabul qilishdagi tibbiy hujjatlarni rasmiylashtira olishi;
- yuqumli kasalliklarda bemorlarga hamshiralik yordamini ko‘rsata olishi;
- ichak infeksiyalarining kelib chiqish sabablari, asosiy klinik belgilari, ularning profilaktikasi haqida tushunchalarga ega bo‘lishi;
- nafas yo‘llari yuqumli kasalliklari, kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralari haqida bilishi;
- qon infeksiyalari va avariya holatlari haqida tushunchaga ega bo‘lishi;
- parazitar kasalliklarning tashxisot usullarini, kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlarini bilishi;
- o‘tkir va surunkali virusli gepatitlar, tashxisot usullarini, ularning asoratlari, kasalliklarning oldini olish chora- tadbirlarini bilishi;
- tashqi qoplam infeksiyalari kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralari haqida bilishi;
- karantin va o‘ta xavfli infeksiyalar, ularning oldini olish choralari, himoya kiyimlaridan foydalanish qoidalarini bilishi;
- mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va yangilangan to‘liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan, uzluksiz o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan bo‘lishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi: O‘quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar diagnostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralari qo‘llash, O‘zbekiston Respublikasi SSVning ”Aholi o‘rtasida o‘ta xavfli zoonopronoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risidagi”, ”Virusli gepatitlar tashhisoti, davosi va profilaktikasi bo‘yicha chora- tadbirlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida” buyruqlari, *O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Tibbiyot xodimlarni milliy klinik protokollar asosida bemorlarni*

tashxislash va davolash buyicha umumiy malaka oshirish kursni tashkil etish to'g'risida" № 257 buyrug'ining 8 va 9- modullar mazmun mohiyati, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / a'naviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: : Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan xujjat: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng

takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, ona - bolalar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbir etish;
- hamkasblar, kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va ularning qarindoshlari bilan bo'lgan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirish;
- tibbiy xatolarga yo'l qo'yishning oldini olish maqsadida o'z faoliyati natijalarini har doim tahlil qilish va tahlil natijalarini amalga oshirish;
- bemorlarni parvarishlashda qo'llaniladigan yangi tibbiy asboblarni va texnik jihozlardan foydalanish;
- kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda turli manbalardan tibbiyotga oid ma'lumotlarni olish;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;

- to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;
- aholi salomatligini mustahkamlash va sog'lomlashtirishda yuqumli kasalliklar profilaktikasini bilish;
- yuqumli kasalliklarni va ularning yashirin turlarini erta aniqlash maqsadida zamonaviy tekshirish usullariga bemor va asbob-anjomlarni tayyorlash;
- shoshilinch holatlarni o'z vaqtida aniqlash va birlamchi tezkor hamshiralik yordamni amalga oshirish ko'nikmalarini yangilaydi;
- yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemor ahvolini baholash va hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmalarini yangilaydi;
- aholi o'rtasida va yuqumli kasalliklar shifoxonalarida fekal-oral, havo-tomchi yo'li, parenteral va qon hamda qon mahsulotlari orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktik hamda epidemiyaga qarshi chora –tadbirlar kompleksini o'tkaza olish qobiliyati yangilanadi;
- surunkali virusli hepatitlarning og'ir asoratlari yuzaga kelishini oldini olish chora- tadbirlari to'g'risidagi bilimi yangilanadi;
- tashqi qoplam infeksiyalari kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralari haqidagi bilimi yangilanadi;
- avariya holatlar yuzaga kelganda hamshira taktikasini amalga oshirish ko'nikmalari takomillashadi;
- karantin va o'ta xavfli infeksiyalarning oldini olish choralari, himoya kiyimlaridan to'g'ri foydalanishni amalga oshiradi;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish vazifalari takomillashadi;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

3.DASTUR MAZMUNI

3.1“Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi” kursi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infekcion nazorat	6	4	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fani modullari	104	44	60		
2.1	Modul:Yuqumli kasalliklar faniga kirish va ularda hamshiralik ishi.	6	4	2		
2.2	Modul:Ichak yuqumli kasalliklarida hamshiralik ishi.	18	6	12		
2.3	Modul:Virusli gepatitlarda hamshiralik ishi.	12	4	8		
2.4	Modul:Parenteral yo‘l orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.	14	6	8		
2.5	Modul:Havo - tomchi yo‘li orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.	24	10	14		
2.6	Modul:Parazitar kasalliklarda hamshiralik ishi.	6	4	2		
2.7	Modul:Tashqi qoplam infeksiyalarida hamshiralik ishi.	6	2	4		
2.8	Modul:Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.	12	6	6		
2.9	Modul:Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	60	76	4	4

“Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi” kursi o‘quv modullarining mazmuni

1.1.Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul: Infeksion nazorat.

Infeksion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalaniish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4. Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish.

Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1. Modul: Yuqumli kasalliklar faniga kirish va ularda hamshiralik ishi.

Yuqumli kasalliklar faniga kirish. Yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumot. Yuqumli kasalliklarning asosiy xususiyatlari, ularning kelib chiqishida ijtimoiy sharoitlar va muhitning ahamiyati. Yuqumli kasalliklar tasnifi, kasalliklarni aniqlashda zamonaviy laborator tekshiruvlar va ularni o'tkazishda hamshiraning tutgan o'rnini. Yuqumli kasalliklar bilan og'rikan bemorlarda hamshiralik ishi. Yuqumli kasalliklar shifoxonasi va bo'limlarining tuzilishi, ish tartibi, me'yoriy xujjatlari. Kasalxonada ichida tarqaluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tadbirlari. Bemorlarni kasalxonadan chiqarish tartibi. Yuqumli kasalliklar bilan og'rikan bemorlarni davolash va parvarishlash xususiyatlari.

2.2. Modul: Ichak yuqumli kasalliklarida hamshiralik ishi.

Aholi o'rtasida uchraydigan ichak infeksiyalari haqida tushuncha. Salmonellyoz, dizenteriya etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik ko'rinishlari, asosiy klinik belgilari, tashxisot usullari va bemor parvarishi. Parhez ovqatlantirishning ahamiyati. Kasalliklarning umumiy profilaktikasi, infeksiya o'chog'ida o'tkaziladigan chora- tadbirlar. Ovqat toksikoinfektsiyasi. Botulizm etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari. Laborator tekshirish usullari. Bemor parvarishi. Botulizm va ovqat toksikoinfektsiyasida bemorga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Ich terlama, A va B paratiflar, etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari, tashxisoti. Zamonaviy laborator tekshirish usullari. Ich terlama asoratlari. Bemorni parvarishlash xususiyatlari va profilaktik chora- tadbirlarni olib borishda hamshiraning o'rni. Ichak infeksiyalarida oral regidratatsiyaning afzalligi. Kasalliklarni oldini olish chora- tadbirlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2015-yil 25-martdagi "Respublika aholisi o'rtasida ich terlama, paratif, salmonellez, va o'tkir ichak kasalliklarning oldini olish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida"gi 122-sonli buyrug'i mazmun mohiyati.

2.3. Modul: Virusli hepatitlarda hamshiralik ishi.

Enteral virusli hepatitlar, etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari, laborator tekshirish usullari. Bemor parvarishi. Virusli hepatitlarda parhez ovqatlantirish. Kasalliklarning umumiy va maxsus profilaktikasi. Parenteral virusli hepatitlar, etiologiyasi, epidemiologiyasi. Asosiy klinik belgilari. Parenteral virusli hepatitlarda laborator tekshirish usullari. Bemor parvarishi. O'zbekiston Respublikasi SSV ning «Respublikada virusli hepatitlar bilan kurashish choralari yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» buyrug'i mazmuni bilan tanishish.

Surunkali virusli hepatit B,C,D. Virusli hepatitli bemorlar dispanser kuzatuv. Virusli hepatitlarda epidemiyaga qarshi chora tadbirlar. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Tibbiyot xodimlari milliy klinik protokollar asosida bemorlarni tashxislash va davolash buyicha umumiy malaka oshirish kursni tashkil etish to'g'risida" № 257 buyrug'ining 8 va 9- modullar mazmun mohiyati.

2.4 Modul: Parenteral yo'l orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.

Parenteral yo'l orqali yuqadigan yuqumli kasalliklar haqida ma'lumot. Toshmali tif etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari, bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari. Bezgak etiologiyasi, qo'zg'atuvchi turlari, kasallik epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari Bezgak xuruji, hamshira yordami. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish usullari. Bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari.

OIV va OITS haqida ma'lumot. Etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik bosqichlari, bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari. Serologik va immunologik tekshiruvlar. OIV infeksiyaning davosi: antiretrovirus (ARV) preparatlari haqida yangi ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi SSVning "O'zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasini oldini olish chora-tadbirlari va tibbiy yordamni tashkil etishni

yanada takomillashtirish to'g'risida" gi № 111 sonli 19-may 2023 yil chiqarilgan buyrug'i mazmun mohiyati bilan tanishish. OITS markazlari, laboratoriyalari va ularning ish faoliyati haqida ma'lumot. Avariya holatlar yuz berganda hamshira taktikasi. Qon infeksiyalari bilan og'riqan bemorlarda hamshiralik ishi.

2.5 Modul: Havotomchi yo'li orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.

Nafas yo'llari yuqumli kasalliklari. Meningokokkli infeksiya. Asosiy klinik belgilari, tashhisoti, bemor parvarishi. Gripp va boshqa o'tkir respirator virusli infeksiyalar etiologiyasi, epidemiologiyasi, asjisiy klinik belgilari. Bemorlarni ko'zdan kechirish, bemor muammolarini aniqlash, ma'lumot to'plash va tahlil qilish, parvarish rejasini tuzish va amalga oshirish. Laboratoriya tashhisoti uchun material yig'ish. Zamonaviy virusologik va serologik tekshirish usullari. Bemorlarni davolash va parvarishlash. Nafas yetishmovchiligida yordam ko'rsatish. Gipertermiyada shoshilinch yordam ko'rsatish. Epidemiyaga qarshi chora tadbirlar rejasini tuzish. Grippga qarshi emlash o'tkazish. Koronavirusli va meningokokkli infeksiya etiologiyasi va epidemiologiyasi, klinik belgilari, laborator tashxisot usullari, bemorlar parvarishi, kasallikning oldini olish.

Qizamiq, qizilcha, skarlatina va suvchechak kasalliklarining etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari. Toshmalar xarakteri, kasalliklarni bir-biridan qiyosiy taqqoslash. Bemor parvarishi. Kasalliklar umumiy va maxsus profilaktikasi. Epidemik parotit etiologiyasi, epidemiologiyasi. Asosiy klinik belgilari, hamshiralik tashhisi, bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari. Nafas yo'llari yuqumli kasalliklari. Meningokokkli infeksiya. Asosiy klinik belgilari, tashhisoti, bemor parvarishi. Gripp va boshqa o'tkir respirator virusli infeksiyalar etiologiyasi, epidemiologiyasi, asjisiy klinik belgilari. Bemorlarni ko'zdan kechirish, bemor muammolarini aniqlash, ma'lumot to'plash va tahlil qilish, parvarish rejasini tuzish va amalga oshirish. Laboratoriya tashhisoti uchun material yig'ish. Zamonaviy virusologik va serologik tekshirish usullari. Bemorlarni davolash va parvarishlash. Nafas yetishmovchiligida yordam ko'rsatish. Gipertermiyada shoshilinch yordam ko'rsatish. Epidemiyaga qarshi chora tadbirlar rejasini tuzish. Grippga qarshi emlash o'tkazish. Koronavirusli va meningokokkli infeksiya etiologiyasi va epidemiologiyasi, klinik belgilari, laborator tashxisot usullari, bemorlar parvarishi, kasallikning oldini olish.

Qizamiq, qizilcha, skarlatina va suvchechak kasalliklarining etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari. Toshmalar xarakteri, kasalliklarni bir-biridan qiyosiy taqqoslash. Bemor parvarishi. Kasalliklar umumiy va maxsus profilaktikasi. Epidemik parotit etiologiyasi, epidemiologiyasi. Asosiy klinik belgilari, hamshiralik tashhisi, bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari. Difteriya etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi, bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari. Kasalliklarga qarshi emlash o'tkazish, ularning muddatlari. Ko'kyo'tal etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi, bemor parvarishi va kasallikni oldini olish choralari. Kasalliklarga qarshi emlash o'tkazish, ularning muddatlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2014-yil 14-iyuldagi

“O‘tkir respirator infeksiyalarning epidemiologik nazoratini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 242 – sonli buyrug‘i mazmun mohiyati.

2.6 Modul:Parazitar kasalliklarda hamshiralik ishi.

Parazitar kasalliklari haqida ma’lumot. Enterobioz, askaridoz, gimenolepidoz, lyamblioz, teniarinxoz, exinokokkoz kasalliklarining etiologiyasi va epidemiologiyasi. Asosiy klinik belgilari, kechish hususiyatlari. Laborator tekshiruv usullari. Bemor parvarishi, kasalliklarning oldini olish. Kasalliklarni davolash va profilaktikasini amalga oshirishda hamshiraning tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2015-yil 25-martdagi “Respublikada parazitar kasalliklar profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 121-sonli buyrug‘i mazmun mohiyati.

2.7. Modul: Tashqi qoplam infeksiyalarida hamshiralik ishi.

Tashqi qoplam infeksiyalari haqida ma’lumot. Qoqshol, etiologiyasi va epidemiologiyasi. Asosiy klinik belgilari, tashhisoti. Bemor parvarishi. Saramas, etiologiyasi va epidemiologiyasi. Asosiy klinik belgilari, laborator tekshirish usullari. Bemor parvarishi. Qoqshol, saramasda epidemiyaga qarshi chora tadbirlar.

2.8. Modul: Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi.

Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar haqida ma’lumot. Karantin infeksiyalar guruhi. O‘lat etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik shakllari, asosiy klinik belgilari. Zamonaviy laborator tashxisot usullari: bakteriologik, bakterioskopik, serologik tekshiruvlar. Bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. Vabo etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari, klinik ko‘rinishlari, suvsizlanish darajalari. Tashxisoti. Eksikozga qarshi kurash, bemor parvarishi. O‘ta xavfli infeksiyalarning umumiy profilaktikasi va infeksiya o‘chog‘ida olib boriladigan chora tadbirlarni tashkil etishda hamshiraning vazifalari. O‘ta xavfli yuqumli kasalliklar guruhi. O‘ta xavfli zooantroponoz kasalliklar haqida tushuncha. Quturish etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik belgilari, fobiyalar, bemorlar parvarishi. Kasallikning umumiy va maxsus profilaktikasi. Hayvon tishlagan jarohatga ishlov berish. Antirabik vaksinatsiya o‘tkazish. Kuydirgi etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi va hamshiralik parvarishi. Kasallik profilaktikasi. Brutsellyoz etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari va hamshiralik parvarishi, kasallikni oldini olish choralari. Gemorragik isitmalar, etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinikasi va hamshiralik parvarishi, kasallik profilaktikasi. Maymun chechagi, etiologiyasi, epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari, kasallik profilaktikasi. O‘ta xavfli yuqumli kasalliklarda epidemiyaga qarshi chora tadbirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining № 37 - 23.01.2015 “Respublikada aholi o‘rtasida o‘ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i mazmun mohiyati.

2.9. Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi, mulyaj, fantom v.b jihozlar. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-xuquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining buyruq va me'yoriy hujjatlari:

1. № 111 sonli 19-may 2023 yil O'zbekiston Respublikasi SSV ning "O'zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasini oldini olish chora- tadbirlari va tibbiy yordamni tashkil etishni yanada takomillashtirish to'g'risida"

2. № 37 - 23.01.2015 Res. da aholi o'rtasida o'ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida.

3. № 542 - 27.08.2018 Res. da virusli gepatitlar tashhisoti, davosi va profilaktikasi bo'yicha chora- tadbirlarni yanada takomillashtirish to'g'risida.

4. O'zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigienik normativlari. O'zR SanQvaM № 0365 -19.

5. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 yil

6.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2002-yil 02-yanvar № 1-sonli «Oba (Chuma) kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni va profilaktikasi xaqida buyruq.

7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2012-yil 25-yanvardagi «O‘zbekiston respublikasida vabo kasalligi ustidan epidemiologik nazoratni yanada takomillashtirish to‘g‘risida» №25 sonli buyruq.

8.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2015-yil 1-maydagi «Bakteriologik, virusologik va o‘ta xavfli yukumli kasalliklar laboratoriyalarida o‘tkaziladigan laboratoriya tekshiruv usullarini takomillashtirish to‘g‘risida» №177 sonli buyruq.

9.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2015-yil 25-martdagi “Respublika aholisi o‘rtasida ich terlama, paratif, salmonellez, va qtkir ichak kasalliklarning oldini olish borasida olib borilaetgan chora-tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 122-sonli buyrug‘i.

10.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2015-yil 25-martdagi “Respublikada parazitlar kasalliklar profilaktikasi buyicha chora-tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 121-sonli buyrug‘i.

11.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2014-yil 14-iyuldagi “O‘tkir respirator infeksiyalarning epidemiologik nazoratini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 242 – sonli buyrug‘i.

Asosiy adabiyotlar:

1.X.A.Abduqodirov, Sh.Sh.Shovaxobov “ Yuqumli kasalliklar va bemorlar parvarishi”.

2.H.B.Saparov “ O‘ta xavfli yuqumli kasalliklar” Toshkent- 2014.

3.“Karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar bo‘yicha qo‘llanma” H.B.Saparov, A.H.Hasenov. Toshkent- 2010.

4.Akademik Daminov T.A, professor Boboxujaev S.N, professor Axmedova M.D, dotsent Magzumov X. B, dotsent Shukurov B. V, dotsent Karimova M.T, dotsent Xalilov X.S, dotsent Niyazova T.A, dotsent Yakubov X.K, dotsent Agzamxodjaeva N.S, dotsent Tadjieva N.U. «Yuqumli kasalliklar» fanidan ma’ruzalar to‘plami.

5.E.I.Musaboev ,A.Q.Bayjanov.«Yuqumli kasalliklar epidemiologiya va parazitologiya». Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti 2006 yil.

4.3.2. Elektron ta’lim resurslari

- www.ziyonet.uz- Ma’lumotlar portali
- <http://www.ziyonet.uz>
- <http://www.edu.uz>
- <http://www.pedagog.uz>
- www.tma.uz,
- www.lex.uz

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar,o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.